ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133’06.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Nazarova Namuna Abdumajitovna
Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasi.....3

Nazarova Namuna Abdumajitovna
The poetics of Sirojiddin Sayyid’s poetry 25

Назарова Намуна Абдумажитовна
Поэтика поэзии Сирожиддина Саййида.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of publications
Список опубликованных работ 53

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4067 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qahramonov Qurdosh Yalgashevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yusupova Dilnavoz Rahmonovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Mullaxo‘jayeva Ra’no Toshxo‘jayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “16” may soat 14 00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (354 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100. Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “02” may da tarqatildi
(2025-yil “02” 05 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida shoir poetik olami, she'riyatiga xos yetakchi xususiyatlari, obrazlilik va poetik obraz yaratishi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati hamda uslubiy o'ziga xosliklari avvaldan o'rganib kelinmoqda. Ayni paytda ushbu muammolar har bir shoir ijodida boshqalardan farq qiluvchi individual tarzda namoyon bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, hech qachon eskirmaydigan, har bir ijodiy namunada o'zining yangi-yangi qirralari bilan bo'y ko'rsatuvchi ijodiy jarayon sifatida ilmiy ahamiyatga molikdir.

Dunyo adabiyotshunosligida o'tgan asr boshlaridan hozirgacha yaratilgan ilmiy izlanishlarda shoirlar ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu ko'lami, badiiyati, obrazliligi, obraz yaratish va poetik unsurlardan mohirona foydalanish masalalariga adabiyotshunoslikning bosh masalalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Xususan, badiiy obraz, lirik qahramon, she'rda shoir "men"i, ramz va timsollar va ularning badiiy talqini masalalari yetakchi muammolardan biri bo'lib qolmoqda. She'riyatda qo'llaniladigan turli xil poetik vositalarni ijodkor mahorati, voqelikka bo'lgan faol munosabati mahsuli sifatida tadqiq etish ham bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

O'zbek adabiyotshunosligida shoir poetik nigohi, uning badiiy obraz yaratish salohiyati doimo jiddiy o'rganib kelingan. O'zbek she'riyatini, xususan, iste'dodli shoir Sirojiddin Sayyid ijodini badiiy mahorat nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shoir shaxsiyati, dunyoqarashi, o'z "men"ining namoyon bo'lishi, yangicha g'oyaviy-badiiy motivlar, obraz va timsollar yaratishdagi an'anaviy va zamonaviy ifoda usullari hamda ramziy-majoziy obrazlar talqini asosida shoir munosabatini belgilash orqali lirik kechinma tabiatiga oid muammolar bo'yicha kuzatishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"[1]. Binobarin, hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida yuzaga kelayotgan yangicha tadqiq yo'nalishlari asosida shoir ijodida namoyon bo'layotgan ruhiy kechinmaning botiniy olamiga milliy va umumbashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish ishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-sonli "O'zbekiston Yozuvchilar

[1]Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 139-sonli “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. She’r poetikasi masalasi, uning adabiy tur sifatidagi o‘ziga xosligi, tasnifi, badiiy-estetik xususiyatlari, obrazliligi, poetik obraz yaratish kabi masalalar tadqiqi G‘arb va Sharq allomalari, faylasuflari tomonidan jiddiy o‘rganilgan. Jumladan, Platon, Aristotel, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Gegel, V.G.Belinskiy, A.Potebnya, A.Sa’diy, Fitrat, Rene Uellek, Ostin Uorren, Izzat Sulton, L.Timofeev, G.Pospelov, B.Sarimsoqov, V.E.Xalizev kabi turli davrlarda yashab o‘tgan olimlarning qarashlarida o‘z aksini topgan[2].

O‘zbek adabiyotshunosligida ham ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop tadqiqotlarda she’riyatga oid kuzatishlar yaratilgan bo‘lib, ularda she’riyatning janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami, obrazliligi, badiiy so‘zdan foydalanish mahorati kabi masalalar bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. N.Shukurov, N.Karimov, I.G‘afurov, B.Nazarov, H.Umurov, N.Rahimjonov, S.Meli, Ya.Qosim, J.Jumaboyeva, U.Hamdamov, N.Jabborov kabi taniqli olimlar zamonaviy she’rshunoslikka katta hissa qo‘shgan bo‘lsalar, ularning vorislari sifatida bir qancha tadqiqotchilar[3] ham kuzatishlar olib bordilar.

---

[2] Шарафиддинов О. Замон. Қалб. Поэзия. – Тошкент, 1962; Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 1964; Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972; Белинский В. Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979; Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979; Форобий. Шоирлар санъати қонунлари ҳақида / Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980; Иззат Султон. Адабиёт назарияси. 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент, 1995; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М. Абдуллаев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2011; Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012; Умуров Ҳ. Тирик шеърлар поэтикаси. – Тошкент: Наврўз, 2015; Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016; Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.

[3] Турдимов Ж. Б. Лирик кечинма табиати. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004; Ҳайитов А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида анъана ва услубий изланишлар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004; Ходжамқулов У. Н. Миртемир лирикасида сўз ва образ. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Сабирдинов А. Ойбекнинг шеърий маҳорати. – Тошкент: Фан, 2005; Қурбонбоев И. А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида образлилик. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Ашурова Г. Абдулла Орипов шеърларида анъана ва бадиий маҳорат. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008; Ҳасанов Ш. Истеъдоднинг рангин жилолари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011;

Bu tadqiqotlarda shoirlarning badiiy mahorati, so‘z tanlash va poetik obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklari, she’riy vazn va janrlarni yangilash borasida olib borgan kuzatuvlari tahlil va tadqiq etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, saksoninchi yillar she’riyatiga tengdosh bo‘lgan Sirojiddin Sayyid ijodi ham ushbu kuzatuvlardan chetda qolmagan: olimlar, munaqqidlarning she’riyatga oid maqolalarida, ayrim tadqiqotlarda[4] shoir ijodining o‘ziga xosligi haqidagi turli fikr-mulohazalar, talqinlar ilgari surilgan. Tadqiqotchi Ra’no Payzullayeva “Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini”[5] mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu dissertatsiya ishida shoirning Vatan mavzusi, vatanparvarlik g‘oyalari va Vatan obrazini yaratishdagi badiiy mahorati o‘rganilgan. Albatta, shoir ijodiy ko‘lami birgina Vatan mavzusi doirasida cheklanib qolmaydi. Shoirning Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari aks etgan ijodidan tashqari ona mavzusidagi, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalar aks ettirilgan, falsafiy ruh yetakchilik qilgan ko‘plab ijod namunalari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Sirojiddin Sayyid ijodining asosiy konsepsiyasini tashkil etgan bu kabi mavzularda yaratilgan ijod namunalarini badiiy mahorat nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shoirning so‘z qo‘llash, badiiy san’atlardan foydalanish mahoratini o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot ayni jihati bilan shoir she’riyatiga xos poetik izlanishlarni yaxlit tadqiq etuvchi tadqiqot sifatida avvalgi ishlardan farq qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasini chuqur o‘rganish orqali uning o‘ziga xos badiiy uslubi, adabiy-estetik qarashlari, mavzular

---

Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018; Холова М. Ўзбек модерн шеърияти: тарихи ва назарияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2018; Давронова М. Ҳозирги адабий жараёнда услуб поэтикаси. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019; Муллахўжаева Р. Тафаккур янгиланиши (Шавкат Раҳмон ижоди мисолида). – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2019; Ravshanova G. Abdulla Oripovning hajvnavislik mahorati: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Qarshi, 2020; Raimova S. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida diniy-ma’rifiy mavzuning badiiy talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2021; Yuldasheva X. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruhning badiiy ifodasi. – Toshkent, 2023; Yuldashev N. Cho‘lpon she’riyati poetikasi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Andijon, 2023; Keldiyorova N. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida poetik obraz va uning badiiy talqini: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2023; Oripova G. Mustaqillik davri o‘zbek lirikasi. Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024.

[4] Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018; Пайзуллаева Р. Ватанпарварлик, миллий ғурур туйғуларининг бадиий ифодаси // Сўз санъати. 2020. № 3; Пайзуллаева Р. Сирожиддин Саййид шеъриятида Навоиёна оҳанглар // “Алишер Навоий ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Навоий, 2021 йил 23-25 ноябрь; Oripova G, Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // Inertational scientific journal of Biruni. Oct. 2022; Abdulhamidova H., Saminjonova M. Mustaqillik davri she’riyatida milliy detallarning ifodalanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. November; Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari // “O‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Navoiy, 2023; Jabborov N. Men she’r aytsam, bu hayot yana sha’n hayot bo‘lgay... // O‘z AS, 2023. № 42; Жабборов Н. Шоирнинг буғдой сўзи // Халқ сўзи. 2024 йил. №143.

[5] Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Navoiy, 2024.

doirasi, she’riy san’atlarni qo‘llash va badiiy obraz yaratish usullari hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sirojiddin Sayyid ijodini mavzu ko‘lami jihatidan o‘rganish va tasniflash, muayyan g‘oya ifodasidagi mahoratini tadqiq etish;

shoirning she’riy obrazlarni qo‘llashdan ko‘zlagan maqsadi va ularning mavzu va g‘oyani ifodalashdagi o‘rnini aniqlash;

shoir she’riyatida odam va olam, vatan va vatanparvarlik, chuqur insoniy gumanizm, inson va tabiat munosabatlari hamda kechinmalarining ma’naviy-ijtimoiy va estetik hamda ruhiy omillarini tahlillar jarayonida ochib berish;

shoir she’rlaridagi janriy-uslubiy izlanishlarni, xususan, shoir yaratgan poetik obraz va timsollarni, badiiy san’atlarni falsafiy, axloqiy va ta’limiy g‘oyalar ustuvorligi asosida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sirojiddin Sayyidning she’rlari jamlangan ko‘p jildlik “Tanlangan asarlar”i olindi va ishning mohiyatidan kelib chiqib, zarur o‘rinlarda boshqa ijodkorlar she’rlari ham tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmetini Sirojiddin Sayyidning ishga jalb etilgan ijod namunalaridagi poetik ma’no, obrazlilik va obraz hamda uning yuzaga chiqishini ta’minlashda ishtirok etadigan lirik kechinma, kompozitsiya, mavzu, g‘oya, muammo, xalqona motiv kabi badiiylik unsurlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida germenevtik talqin, struktural tahlil, tarixiy-qiyosiy, biografik metodlar hamda ruhiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shoir ijodi g‘oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit tizim asosida tekshirildi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan g‘oyalar aniqlanib, ularga muallif yondashuvi ochib berilgan;

Sirojiddin Sayyid she’riyatining o‘q tomirini, yetakchi mavzusini yuksak vatanparvarlik motivlari tashkil etishi, vatanni tarannum etish shoir a’mollaridan biri ekani, vatan madhi ona yurt, tug‘ilgan zamin bilan uzviy bog‘liq tarzda turfa xil obraz va timsollar orqali yuksak g‘oyaviylik fonida ifoda etilishi, shoirning adabiy jarayondagi o‘rni, zamondosh shoirlardan farqli jihatlari, an’anaviy she’riyatga hamohangligi hamda chuqur insoniy gumanistik g‘oyalari bilan ijtimoiy-estetik tafakkurga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy asoslangan;

shoir she’riyatidagi yetakchi motiv va poetik obrazlar ona yurt timsoli bilan bir butun hodisa sifatida odam va olam munosabatlarining falsafiy talqini, shoir shaxsiyatining voqelikka, borliqqa bo‘lgan ijtimoiy-estetik pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri ekani dalillangan;

shoirning shakliy-uslubiy izlanishga asos beruvchi badiiy tasvir vositalaridan, jumladan, tashbeh, talmeh, irsoli masal, tazod, mubolag‘a kabi badiiy san’atlardan mohirona foydalanishi, shakliy hamda janriy izlanishlarining falsafiy teranlik, hikmatona mohiyat va xalqona ifoda ustuvorligini ta’minlashi tahlillar bilan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davr she’riyati haqida, xususan, tadqiqot obyekti bo‘lgan Sirojiddin Sayyid she’riyatidagi poetik izlanishlar mavzu va g‘oya, obraz va obrazlilik, badiiy san’atlardan mohirona foydalanish, badiiy san’atlarning yangi qirralarining kashf etilishi, she’riyatning janriy-uslubiy takomili, an’anaviyligi va zamonaviyligi borasidagi chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, poetik mahorat va adabiy jarayonga oid yangi tadqiqotlar olib borish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

mazkur tadqiqot materiallaridan oliy ta’lim tizimida adabiyot darslarini o‘qitishda, adabiyot tarixi va adabiy jarayon fanlari bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalari mustaqillik davri o‘zbek adabiyotini o‘rganishda manba bo‘lishiga, tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalarga asoslanganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, biografik va ruhiy tahlil usullari orqali asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Sirojiddin Sayyidning badiiy-estetik qarashlari haqida chuqurroq tushuncha berishda, shoir she’riyatidagi mavzularni, qo‘llanilgan she’riy san’at turlarini ilmiy jihatdan tasniflash bu boradagi nazariy bilimlarni boyitishda, Sirojiddin Sayyid ijodi misolida XX – XXI asr o‘zbek she’riyati poetikasidagi yangi an’analar, badiiy uslublar va adabiy jarayonlar haqida kengroq ilmiy tasavvur shakllanishida, tadqiqot natijalari she’riyat poetikasi bo‘yicha nazariy baza uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy o‘quv yurtlarida adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda asosiy material sifatida foydalanish uchun mos kelishi, tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar o‘zbek she’riyati bo‘yicha keyingi ilmiy ishlar va tadqiqotlar uchun amaliy ko‘rsatma sifatida qo‘llanishi, Sirojiddin Sayyid ijodini targ‘ib qilish maqsadida turli madaniy tadbirlar, seminarlar va konferensiyalar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Shoir ijodi g‘oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit tizim asosida tahlil etilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan g‘oyalar ko‘rsatilishi, ularga muallif yondashuvining ochib berilishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-yanvardagi 04/1-43-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Sirojiddin Sayyid ijodi bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarning boyitilishiga muhim asos bo‘lgan;

Shoirning shakliy-uslubiy izlanishga asos beruvchi badiiy tasvir vositalaridan, jumladan, tashbeh, talmeh, irsoli masal, tazod, mubolag‘a kabi badiiy san’atlardan mohirona foydalanishi, shakliy hamda janriy izlanishlarining falsafiy teranlik,

hikmatona mohiyat va xalqona ifoda ustuvorligini ta’minlashi haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-martdagi 04/1-789-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha shoirning shakliy-uslubiy izlanishga asos beruvchi badiiy tasvir vositalar, jumladan, tashbeh, talmeh, irsoli masal, tazod, mubolag‘a kabi badiiy san’atlarga oid materiallar bilan boyitilgan;

shoir she’riyatidagi yetakchi motiv va poetik obrazlar ona yurt timsoli bilan bir butun hodisa sifatida odam va olam munosabatlarining falsafiy talqini, shoir shaxsiyatining voqelikka, borliqqa bo‘lgan ijtimoiy-estetik pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 6-dekabrda o‘tkazilgan “Xiyobon oqshomlari” she’riyat kechasi dasturini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 6-dekabrdagi 01-03/973-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, adabiyot ixlosmandlari ko‘nglida ijobiy tuyg‘ular, ezgu g‘oyalar shakllanishiga va estetik zavq ulashishga erishilgan;

Sirojiddin Sayyid she’riyatining o‘q tomirini, yetakchi mavzusini yuksak vatanparvarlik motivlari tashkil etishi, vatanni tarannum etish shoir a’mollaridan biri ekani, vatan madhi ona yurt, tug‘ilgan zamin bilan uzviy bog‘liq tarzda turfa xil obraz va timsollar orqali yuksak g‘oyaviylik fonida ifoda etilishi, shoirning adabiy jarayondagi o‘rni, zamondosh shoirlardan farqli jihatlari, an’anaviy she’riyatga hamohangligi hamda chuqur insoniy gumanistik g‘oyalariga oid ilmiy ma’lumotlardan “Yoshlar radiokanali”ning 2024-yil 13-dekabrda bo‘lib o‘tgan “Talabalar vaqti” dasturida foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar radiosi” davlat muassasasining 2024-yil 26-dekabrdagi 14-05-225-son ma’lumotnomasi). Natijada shoirning vatanparvarlik, chin insoniy tuyg‘ular tarannumi kuylangan she’rlari dasturning ma’naviy saviyasi oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda, 1 tasi xalqaro nashrda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy va amaliy ahamiyati ta’kidlangan, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi va aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sirojiddin Sayyid she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”** deb nomlangan. Bu bob ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi paragraf **“Shoir she’riyatida mavzu va g‘oya birligi”** deb ataladi. Adabiyot yaralibdiki, badiiy so‘z san’ati sehrini anglashga, tushunishga doimo ehtiyoj bo‘lgan. Mana shu ehtiyoj tufayli ijodkor poetik olamini, so‘z nafosatining voqe bo‘lish jarayonlarini talqin-u tadqiq etish olim-u ulamolar zimmasida. Asar poetikasi, badiiyat qirralari, mezonlari va asoslari, mavzu va g‘oya, obrazlar tizimi, tur va janr xususiyatlari, badiiy nutq masalalari Aristotelning “Poetika” asaridan boshlab dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Zero, bu masalalar har bir ijodkor ijodida o‘zini yangilab, shoirning badiiy mahorati tufayli yangicha nafosat qirralarini namoyon etib boruvchi uzluksiz jarayondir.

Poetika tushunchasiga nazariy qo‘llanmalar va adabiyotshunoslikka oid ensiklopediya va lug‘atlarda batafsil ma’lumotlar berilgan, asosiy xususiyatlari, tarkibiy yo‘nalishlari haqida tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da poetika terminiga qisqa qilib shunday ta’rif beriladi: “Poetika (yun. poietika – poetik san’at). 1.Adabiyot nazariyasining so‘z san’ati tuzilishi, uning izchil va tarixiy qonuniyatlari asosida o‘rganilgan bo‘lishi; badiiy asarda qo‘llanuvchi ifoda vositalari tizimi. 2.Adabiyotdagi yoki ayrim shoir, yozuvchiga xos biror-bir yo‘nalishning badiiy tamoyillari va xususiyatlari tizimi”[6].

“Литературная энциклопедия. Терминов и понятий” kitobida uning badiiy adabiyotni tadqiq etuvchi eng qadimgi ilmlardan biri ekani ta’kidlanib, kengaytirilgan ma’nosi adabiyot nazariyasi tushunchasiga to‘g‘ri kelishi yoritiladi. U adabiyot nazariyasiga oid soha sifatida badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlari, tur va janrlar, oqim va yo‘nalishlar, uslub va metod hamda badiiy niyatning barcha komponentlarini o‘rganuvchi soha sifatida ta’riflanadi Ensiklopediyada poetika tushunchasi uch jihatiga ko‘ra belgilanadi: “Odatda, poetika uch asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: umumiy (nazariy yoki tizimli – “makropoetika”), xususiy (yoki aynan tavsifiy – “mikropoetika”) va tarixiy[7].

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ham shu mazmunga mos fikrlar bayon etiladi. Poetika badiiy asarda ifoda vositalari tizimi haqidagi, eng qadimgi adabiyotshunoslik sohasiga oid fan sifatida yoritilib, keng ma’noda adabiyot nazariyasi tushunchasiga to‘g‘ri kelishi ta’kidlanadi. Ensiklopediyada poetikaning uchta tarkibiy qismi farqlab ko‘rsatiladi. Umumiy poetika, tavsifiy (xususiy) poetika, tarixiy poetika[8].

Yuqoridagi kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, garchi poetika tushunchasi uch tarkibiy qismga ajratilib o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, lekin ularning badiiy asarga yondashuvi mushtarak mazmunga ega. Poetikaning badiiy asarni baholashdagi mezoni bitta – bu asarning yuksak badiiyligini, ijodkorning poetik mahoratini ochishga yo‘naltirilganidadir.

---

[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 304.
[7] Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. – М.: НПК. Интелвак, 2001. – С. 785.
[8] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. VII jild. – Toshkent, 2001. – B. 162.

Binobarin, biz mazkur tadqiqotimizda iste'dodli shoir Sirojiddin Sayyid she'riyati poetikasini tadqiq etar ekanmiz, yuqoridagi mushtarak xususiyatdan kelib chiqib, ijodkorning poetik mahoratini, asarlarining yuksak badiiyligini ta'minlashga xizmat qiladigan poetik unsurlarni belgilashga va tadqiq etishga harakat qildik. Zero, taniqli adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov o'zining "Badiiylik asoslari va mezonlari" risolasida bu haqda quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Ma'lum bo'ladiki, adabiy asarning badiiyligini baholaganda, dastlab uning mazmunidagi, ya'ni voqea mohiyatiga, keyin ana shu mohiyatning so'z orqali ifodalanish darajasiga e'tibor qaratish zarur. Ko'pincha, badiiy asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy maqola yoki monografiyalarda yuqorida aytilgan ikki darajadan biriga asosiy diqqat qaratilib, ikkinchisi nazardan soqit qilinadi. Badiiylikni bunday bir tomonlama tushunish adabiy tahlil va talqinda qo'pol xatoliklarga, yanglishishlarga olib boradi"[9]. Demak, masalaga shu nuqtayi nazardan yondashsak, shoir she'rlari badiiyatida mavzu va g'oya birligini o'rganishning o'rni ham katta. Shoir she'rlarining mavzu ko'lami juda keng va ularning har biri ezgulik g'oyalariga xizmat qiladi.

"G'oya – badiiy g'oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan, obrazli, umumlashma fikr"[10]. Mavzu esa she'riyatning barcha komponentlarida o'zligini namoyon etuvchi, ta'bir joiz bo'lsa, ularni bir maqsadga – ijodkor konsepsiyasiga yo'naltiruvchi, she'riyatning qoliplovchisi vazifasida keluvchi birlikdir. Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, mavzu va g'oyaning mazmun-mohiyati, yo'nalishi bevosita ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq. Sirojiddin Sayyid boqiy mavzular orqali vatanparvarlik, elparvarlik, insonparvarlik, tinchlik, ko'ngil xotirjamligi, komillikka intilish, ma'naviy yuksaklik kabi fazilatlarni targ'ib qilar ekan, bu g'oyalar shoir she'rlarining mavzu ko'lami orqali yuzaga chiqadi.

Mavzu va g'oya birligi she'rning har bir qismida, bandida, har bir topilgan, kashf qilingan badiiy topilmadan tortib, zohiran ko'zga tashlanmaydigan, lekin his etiladigan, qalblarga chuqur kechinmalar olib kirishga qodir bo'lgan shoir "men"i, uning o'zligi, qalbi, tuyg'ulari, armonlarigacha qamrab oladigan poetik qurilmadir. Biz shoir ijodida eng ko'p murojaat qilingan, ohorli poetik topilmalar yaratilgan, badiiy obrazlarning betakror kartinalari chizilgan ijod namunalarini shartli ravishda quyidagicha tasnifladik:

1. Vatan va vatanparvarlik mavzusidagi she'rlar.
2. Ona va ona mehrini ulug'lovchi she'rlar.
3. Ijtimoiy muammolar aks etgan she'rlar.
4. Ma'naviy-axloqiy tushunchalarni o'zida mujassamlashtirgan she'rlar.
5. Ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar.
6. Falsafiy ruhdagi she'rlar.

Shoir ijodiga nazar solsak, Vatan to'g'risidagi she'rlari soxtakorlikdan xoli, juda sodda va ravon tilda, ortiqcha jimjimalarsiz yozilganligini ko'ramiz. "Uning

[9] Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 7.
[10] Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 387.

Vatan haqidagi manzumalarida zo‘rma-zo‘rakilik, yasama shiorbozlik yo‘q”[11]. Shoir ijodida Vatan va Ona obrazlari qorishiq holda aks ettiriladi. Quyidagi bandda ham vatan obrazini kitobxon tasavvurida shakllantirishda momolarning yuzini, ularning ajinlarini asosiy detal sifatida tanlaydi. Shoir yozadi:

Men Vatanni na kitob, na
Jaridadan o‘rganganman.
Momolarning yuzidagi
Xaritadan o‘rganganman[12].

Xarita – bu yer yuzining shartli belgilar asosida qog‘ozdagi ko‘rinishidir. Shoir Vatanni o‘rganishda oddiy xaritaga emas, aynan momolarning yuzidagi “xarita”ga murojaat qilib, nuroniy, farishtali onajonlarimizning yuzidagi chiziqlaridan Ona Vatan siymosini izlaydi. Xaritada dunyo aks etgani kabi momolarning yuzidagi “xarita”da ham hayotning og‘ir-yengili, baland-pasti, achchiq-chuchugidan olingan tajribalar xulosalar, xotiralar, hikmatlar, qadriyatlar, aqidalar, donoliklar, xullas, butun hayotga dasturul amal bo‘la oladigan nodir kitob aks etgan, demoqchi shoir.

Ona siymosiga ehtirom, hurmat kabi tushunchalar shoir ijodiy konsepsiyasining asosiy qismlaridan biridir. Aslida, Ona mavzusi Vatan mavzusi singari har bir shoir ijodida uchraydigan o‘lmas mavzular sirasiga kiradi. Sirojiddin Sayyid she’rlarida ona siymosi sog‘inchlardan toliqqan, farzandlarining, qolaversa, butun dunyoning g‘am-tashvishlari bilan yashaydigan jonkuyar, sodda, samimiy inson sifatida gavdalanadi. “Onamga o‘tinlarim”da shoir o‘tin detali orqali onalardagi fidoyilik xususiyatini obrazli aks ettira olgan:

Bolam deya kuyib-yongan,
Tutunim bo‘lgan onam.
Tiriklikning tandiriga
O‘tinim bo‘lgan onam[13].

“Haqiqiy san’at asari o‘zi yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ruhiy dunyosini qamrab olgan tarixdir. Bu “tarix” o‘zida jamiyatni tutib turgan barcha qonun-qoidalarni, ruhiy munosabatlar, adabiy oqim va qarashlar, zamondoshlarining muammolarini turli obraz va badiiy san’atlar vositasida aks ettiradi”[14]. Sirojiddin Sayyid ijodining ham kattagina qismini ijtimoiy masalalar mohiyatini aks ettiruvchi she’rlar tashkil etadi. Shoir yurt tashvishi, el g‘ami, vatan tarannumi, ona madhi, sevgi nafasi, ezgulik ruhiyati, qabohat iskanjasi, zulumot zulmati, e’tiqodsizlik og‘rig‘i, insoniy fazilatlar vasfi, mustaqillik epkini kabi bir qator mavzularda qalam tebratgan. Ijodkorning XX asr 80-yillarida yozilgan she’rlarida zulm va razolat qurbonliklariga qalb inqilobi bilan aytgan hur fikrlari o‘z aksini topgan. Jumladan, “Saksoninchi yillar” (1984), “Hayronbog‘” (1987), “Qorong‘ulikdagi odam yoxud mustabidning paymonasi”(1987), “Ma’rifat” (1987), “Qog‘oz sigir yoki qo‘shib yozish haqida” (1987), “Sariosiyo fojiasi”

[11] Jabborov N. Jonim Vatan, tanim Vatan, ko‘zim Vatan. https://t.me/nurboyjabborov.
[12] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 74.
[13] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 321.
[14] Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2021. – Б. 148.

(1988), “Tanazzul” (1989) kabi she’r va dostonlarida saksoninchi yillar nafasini yorqin ifodalab bergan. Muhimi shundaki, bu kabi ijtimoiy motivlar bilan sug‘orilgan she’rlarda ham ma’naviy olam inson ruhiyati go‘zalliklari bilan uyg‘unlashtirilib, ijtimoiy-estetik va ma’rifiy qimmat kasb etadi.

Professor Marg‘uba Mirqosimova “So‘z yo‘li manzaralari” nomli maqolasida shoir she’rlarini tahlil qilarkan quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “…barchamizni o‘zligimizni tanishga, o‘z ko‘ngil yo‘limizni tayin etishga undaydi, og‘riqli savollar bilan tuyg‘ularimizni, xayollarimizni siljitadi…[15]”. Shoir ijodida inson ma’naviyati masalalari aks etgan ko‘plab she’rlar bor: “Mutolaa”, “Nutq”, “Uyquda aytgan she’rim”, “Chernobel fojiasi”, “Ma’rifat”, “Elektron she’r”, “Yaxshi nom va yaxshilik”, “Odam-telefon”, “Yaxshilik”, “Odam”, “Ma’rifat hududi”, “Asragil”, “Xamsa hayratlari” turkumidagi barcha she’rlari va bir qator to‘rtliklarida ma’naviy-axloqiy xususiyatlarning inson hayotidagi o‘rniga, bu kabi sifatlarni shakllantirish, yanada takomillashtirish chora-tadbirlariga e’tibor qaratiladi.

Shoir sevgi-muhabbat mavzusida ham bir turkum she’rlar yaratdi. “Sevgi mamalakati”, “Dil fasli” kabi turkumlari hamda aruz she’r tizimida bitilgan g‘azal va muxammaslarining ham katta qismi shu mavzuga bag‘ishlangan. Ayonki, sevgi-muhabbat motivi she’riyatdagi azaliy va abadiy mavzular sirasiga kirib, har bir ijodkor qarashida yangicha poetik mazmun bilan boyitilgan holda adabiyot sahnida yashab kelmoqda. Shoirning ushbu turkumdagi she’rlarining asosini sevgi, dil, oshiq, yor, gul, iztirob, g‘am kabi poetik timsollar tashkil etadi. Shoir ijodida ishq mavzusi nafaqat oshiq va yor o‘rtasidagi samimiy tuyg‘ularni ifoda etadi, balki insonning komillikka erishishiga targ‘ibini ham kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, “Yaratmishlar” radifli g‘azalida inson dilda muhabbat bilan inson ekanligi ta’kidlanadi:

Dili yo‘q kimsani ko‘rgach, ki aytdim:
Ki bu bechorani yolg‘on yaratmishlar[16].

Falsafiy ruhdagi she’rlar ham shoir ijodining asoslaridan biri bo‘lib, umr o‘tkinchiligi haqidagi fikrlar, insoniylik qiyofasini saqlab qolishga chorlovlar, haq va xalq ishida sobitqadamlik borasidagi mulohazalar bu turkumdagi she’rlarning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. “Yaxshilik eskirmagay”, “Mening ko‘nglimda bir sham bor”, “Ko‘ngil sohili”, “Ey inson”, “Xayyomdan bir kosa, Rumiydan bir jom”, “Tun bilan tong” kabi bir nom ostida birlashgan she’rlari-yu to‘rtliklarida hamda bir qator g‘azal, muxammas, fardlarida falsafiy g‘oyalar yetakchilik qiladi.

“Janrlar takomili va uslubiy o‘ziga xoslik” deb nomlangan ikkinchi paragrafda shoirning janrlar takomiliga qo‘shgan hissasi va uslubiy o‘ziga xosligi o‘rganilgan. She’r tahlilida vazn va janr xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu unsurlar shoir mahoratini belgilovchi asosiy o‘lchovlardan biri sifatida ko‘riladi. Bular she’rning lirik tur janrlari sifatidagi o‘ziga xosligini – mavzusi, rukni, qofiyasi, qo‘llanilgan she’riy san’atlar, lirik qahramon ruhiyati, undagi an’anaviy sifatlar va shoirning poetik kashfiyotini namoyon etishga xizmat

[15] Мирқосимова М. Сўз йўли. Бадиий матн таҳлили ва талқини муаммолари // Н.М. Маллаев таваллудининг 90 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2012. – Б. 132.
[16] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 245.

qiluvchi muhim vositalar sifatida qaraladi. Mana shu an’anaviy qoidaga asoslanib biz ham Sirojiddin Sayyid she’riyatining shakl va janr xususiyatlariga e’tiborimizni qaratdik. Avvalo, shuni aytib o‘tish lozimki, ijodkor she’r tizimlarining barchasi (aruz, barmoq, erkin she’r tizimi)da barakali ijod qilib kelmoqda.

“Sirojiddin Sayyid zamonaviy she’rni qoyilmaqom qilib yozadi; mumtoz an’analarga sodiqligi g‘azallari, muxammaslari, fardlari-yu shoirona cho‘ng dardlarida yaqqol seziladi”[17]. Shoir to‘plamlarining alohida boblari aruz she’r tizimida bitilgan g‘azallar bilan boyitilgan bo‘lib, shoirning 2018–2019-yillarda nashr qilingan saylanmalarida turli davrlarda yozilgan “Dil bilan dil o‘rtasida”, “Hayotim bog‘ining sarviravoni”, “Chamandirsan chamandan tashqarida” va “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi” kabi aruz she’r tizimida bitilgan bir turkum ijod namunalari jamlangan.

Sirojiddin Sayyid aruzning ramal, hazaj va rajaz bahrlarida barakali ijod qilgan. Shoir ijodida besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, o‘n bir, o‘n ikki, o‘n uch, o‘n to‘rt, o‘n sakkiz baytli g‘azallar uchraydi. Bu kabi ma’lumot va mulohazalar shoirning g‘azal janri rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotganligidan dalolat beradi.

Sirojiddin Sayyid ijodida oshiqona g‘azallar tarkibida yor vasfi tarannumida uning yuzi, ko‘zlari, qoshlari, lablari, sochlari, qomati kabi tana a’zolari tasvir etiladi. Bu jihat ham mumtoz adabiyotimizda uchraydigan barcha oshiqona g‘azallarga xos. Bu bilan ijodkor o‘z salaflari an’anasini davom ettirgan hamda o‘ziga xos tashbehlar yaratgan.

“Tutib” radifli g‘azalida yor go‘zalligini tavsiflashda oy an’anaviy obrazining o‘zgacha bir ifodasini ko‘rishimiz mumkin:

Qatlimni ko‘rdim xolida, bir yuzki oftob holida.

Qat	lim	ni	ko‘r	Dim	xo	li	da	bir	yuz	ki	of	tob	ho	li	da
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Oy chehrasining oldida oy ham o‘zin oriq tutib[18].

Oy	cheh	ra	si	ning	ol	di	da	oy	ham	o‘	zin	o	riq	tu	tib
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Bu g‘azal rajaz bahrida bo‘lib, misralarda ruknlar soni to‘rttadan bo‘lganligi uchun va har bir rukn to‘liq bo‘lganligi sababli vazni rajazi musammani solim (mustaf’iylun-mustaf’iylun-mustaf’iylun-mustaf’iylun)dir. Oy yor go‘zalligini aks ettiruvchi poetik vosita. She’riyatda shuning uchun oy yuzli, oydek go‘zal, to‘lin oy kabi tashbehlar juda ko‘p uchraydi. Bu o‘rinda shoir mahorati shundaki, yor juda chiroyliki, hattoki, oy ham xijolatdan o‘zini to‘lin emas, oriq (yarim), deb hisoblayotganining ruhiy holatini poetiklashtirib tasvirlashida ko‘rinadi.

[17] Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – Б. 91.

[18] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 161.

Shoir ijodida garchi “Ta’bi xud” muxammaslar soni kam bo‘lsa-da, taxmis muxammaslarning sanog‘i anchaginani tashkil etadi. “Muxammas janrining asosiy talablaridan biri, agar ulug‘ salaflar g‘azallariga bog‘langan bo‘lsa, mazmun va badiiyat jihatdan shu qadar uyg‘un bo‘lishi kerakki, har besh misra bir ijodkor tomonidan yozilgandek taassurot qoldirmog‘i zarur. Sirojiddin Sayyid bu borada katta mahoratga ega”[19]. Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Furqat, Hofiz Sheroziy, Mavlono Lutfiy, Atoyi, Sobir Termiziy kabi ijodkorlar asarlariga muxammaslar bog‘lagan. Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan muxammaslar ichida Navoiy ijodiga oid obrazlarning, so‘zlarning o‘zgacha uslub bilan aks etishi Sirojiddin Sayyid she’riyatining badiiy qirralarini ochib bera olgan:

Urib oyning sariq toshiga men bosh,
To‘kurman kechalar yoding bila yosh.
Dilimni holini ko‘r, ey qalamqosh:
Anga baskim yog‘ar tosh ustiga tosh,
Tanida yora uzra yora bo‘lmish[20].

Muxammas oshiqona ohangda bo‘lib, bu band bosh, yosh, qalamqosh, tosh kabi so‘zlar bilan qofiyalangan: b-b-b-b-a. An’anaviy obraz hisoblangan oy obrazi bu bandda oshiqning mahzun holatini ifodalashda sariq tosh detali bilan shoir Sirojiddin Sayyid tomonidan badiiy boyitilgan. Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilib muxammaslar bog‘larkan, ham Hazrat Navoiy ijodini o‘qirmanlarga yaqinlashtirmoqda, ham Navoiy dahosidan ilhomlanib yangicha badiiy topilmalar bilan adabiyot olamini boyitib bormoqda.

Barmoq she’r tizimida shoir turli mavzularda, jumladan, ishqiy, falsafiy, ijtimoiy, ma’naviy muammo va ularning yechimlari aks ettirilgan fikrlarni bayon qila olgan. Bu mavzular turli turoqlar va turli turkumlarda yozilgan. Shoir ijodida ikki, to‘rt, besh, olti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, o‘n ikki misrali bandlardan tashkil topgan she’rlar uchraydi. Ushbu paragrafda ulardan namunalar shoir mahorati nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan. Sirojiddin Sayyid ijodida ikki misrali she’rlarining ikki xil turi borki, ular qofiyalanish tartibiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi:

1. Masnaviy yo‘nalishida, ya’ni qofiyalanishi xuddi masnaviyga o‘xshab a-a, b-b, v-v, g-g… kabi qofiyalangan she’rlar. “Internet” she’rida shunday holat kuzatiladi:

Internet, aylanay *nomingdan* sening,
Gapga lim-lim to‘lug‘ *jomingdan* sening.

Bugun bu olamning *egasi* sensan,
Poyonsiz olamning *erkasi* sensan. [21]

[19] Jabborov N. Jonim Vatan, tanim Vatan, ko‘zim Vatan. https://t.me/nurboyjabborov.
[20] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 176.
[21] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 15

2. G‘azal yo‘nalishidagi, ya’ni qofiyalanishi va mazmun qamrovi jihati bilan g‘azal janriga o‘xshash asarlar. Shoir ijodidagi quyidagi misralariga e’tibor bersak, g‘azalga oid xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

Bu yil sevinchlarga *talosh* bo‘lajak,
Mehrimiz bosh uzra *quyosh* bo‘lajak.

Ketib qancha g‘amlar ko‘z-qoshimizdan,
Qancha beshiklarda ko‘z-qosh bo‘lajak. [22].

Shoir barmoq vaznidagi she’rlariga ham aruz vaznidagi xususiyatlarni singdira olgan. Bu turdagi she’rlar ham o‘zining go‘zal ifodasi, poetik topilmalarga boyligi, fikrning teranligi va ifodaning soddaligi bilan o‘ziga xos tarovat kasb etadi.

“Erkin she’r tizimida: erkin, oq, sarbast janrlari bor”[23]. Adabiyotshunoslikka oid nazariy manbalarda bu she’r tizimining XX asrda o‘zbek adabiyotiga rus va turk adabiyoti ta’sirida kirib kelganligi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Bu tizim lirik qahramonning ichki g‘alayonlarini, kitobxonni nimadandir ogoh etib, nimagadir undab aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Biz shoir ijodidan erkin she’r tizimida erkin va sarbast janrlari namunalarini tahlil qildik.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Lirik qahramon ruhiyati va poetik obraz”** deb nomlangan bo‘lib, u ikki paragrafdan iborat. “Shoir “men”i va lirik qahramon mutanosibligi” deb nomlangan birinchi paragrafda shoir “men”i va lirik qahramon mutanosibligi masalalari yoritib berilgan. Sirojiddin Sayyid she’riyatining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi va obrazlar tizimi lirik qahramon “men”i bilan, uning o‘ziga xos bo‘lgan ruhiy olami hamda shoirning poetik nigohi, g‘oyaviy-estetik maqsadi bilan izchil bog‘langan holda namoyon bo‘lishi tahlillar asosida ochib beriladi. She’riyatda lirik qahramon ruhiyati tasvirlari o‘ziga xos talqinlarga ega. Bu talqinlar, eng avvalo, ruhiyatda kechayotgan oniy holatdagi kechinmalarga asoslanadi. She’riyat shu jihati bilan boshqa adabiy turlarga nisbatan ma’lum bir dramatizmga, qisqa fursatli kechadigan ruhiy po‘rtanalarga, ziddiyatli o‘y-xayollarga izn beradi. Ayni paytda shoir “men”i bilan lirik qahramon kechinmalaridagi uyg‘unlik, mushtaraklik tuyg‘ularning o‘ziga xosligini, subyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi. Binobarin, she’riy asarlarda shoir “men”i bilan lirik qahramonning o‘zligini namoyon qilishi qayerda birlashib, qaysi o‘rinlarda alohidalik kasb etishini anglash mushkul kechadi. Zero, shoir ijod jarayonida ko‘proq o‘z “men”ini, o‘z orzu istaklari va alam-hijronlarini qog‘ozga to‘kishi ayni haqiqat. Bu tizginsiz oniy kechinmalar she’rda umumlashma mohiyat kasb etsa, kitobxonga ham yuqsagina shoir “men”i lirik qahramon sifatida o‘zligini namoyon qiladi. “Jarohat”, “Saksoninchi yillar”, “To‘palon daryo bilan xayrlashuv”, “Tanazzul yoxud bir begonaning iztiroblari”, “Nom” dostonlari o‘rtasidan shunday bir “o‘q ildiz” o‘tganki, buni bevosita shoir “men”i desak

[22] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 10.
[23] Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020. – B. 225.

mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi dostonlar qahramonlari turlicha bo‘lsa-da, shoir “men”i ularni birlashtirib turadi.

Vaqt, Zamin, Insoniyat kabi obrazlarni birlashtirgan “Saksoninchi yillar” dostonida shoir “men”ini har bir satrda his qilsh mumkin. Insoniyatni qiynagan muammolar, insoniyatning tubanligi, kelajak avlod oldidagi mas’ullik, hayotning davomiyligi, umrning o‘tkinchiligi kabi mushohadalar qarshisida gohida ojiz, gohida dono murabbiydek yo‘l tutgan shoir “men”i kitobxonga juda yaqin va juda aziz. Mana shu jihatlar doston qadrini o‘quvchi oldida yana bir karra oshiradi. Shoir “men”i his qilganlarini his qilishga, o‘ylab mushohada yuritganlarini mushohada etishga, muammolarni bartaraf etish yo‘lidagi jonbozligiga xayrixohlik bildirishga urinadi. Bu jihatlar esa Sirojiddin Sayyid fikrlarining xalqqa yaqinligidan, ularning mulohazalariga hamohangligidan dalolat beradi.

“To‘polondaryo bilan xayrlashuv” dostonida shoir “men”ining ruhiy holati, iztiroblarini anglash mumkin:

Maqsadim zar, shonga o‘ranish emas,
Inson kamol topsin yer-u ko‘k aro.
Yo‘limda yastangan ruhiy cho‘llarda
O‘zing qo‘lla endi meni, jon daryo! [24]

Sirojiddin Sayyid ijodi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ijod namunalarining deyarli barchasida inson kamoloti yo‘lidagi orzu-umidlari, istaklar jamuljamligini ko‘rishimiz mumkin. Insonlarni ogohlikka chorlash, ma’naviy yetuklikka undash, ulardagi chirkin illatlarning barham topishiga ko‘maklashish, yomon xulq-atvorlarning oqibatlarini eslatish, shukronalik, bunyodkor mushohadalar qurshovida yashashga undash kabi g‘oyalar shoirning bosh maqsadidir. Lekin bu osongina erishiladigan, tezda bartaraf etiladigan jarayon emas, shoir aytganidek, maqsadga erishmoq uchun “ruhiy cho‘llarda” sargardon bo‘lishi taqozo etiladi. Shuning uchun daryo jo‘shqinligi, toshqinligi insonlar uchun saboq bo‘lishi, kuch bo‘lishini orzu qiladi.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Poetik obraz yaratish mahorati”** deb nomlanib, unda ijodkorning poetik obraz yaratishdagi mahorati o‘rganilgan. Poetik obrazlarning yangilanishi tafakkur yangilanishi bilan bog‘liqdir. Sirojiddin Sayyid ijodida lirik “men”dan tashqari Vatan, Ona, yor, oshiq, dunyo, umr, so‘z kabi poetik obrazlarning yangicha ifoda usuli bilan aks ettirilganligini ko‘ramiz. Bu obrazlar zamon bilan, davrning global muammolari bilan, tinchlik, ozodlik, vatanparvarlik motivlari bilan, insoniy tuyg‘ular tarannumi bilan chambarchas bog‘liq.

“Sevinch” nomli she’rda ham shoir Vatan obrazini yorqin chiza olgan. Bunda chopon badiiy detalining ham o‘ziga yarasha salmog‘i bor:

O‘xshab turgan botirlarga,
Bu tog‘lar ham adirlarga,
Zarbof-zarbof kechalardan
Choponlar yopgan yurtim.[25]

[24] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 294.
[25]Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 329.

O‘zbek an’analariga ko‘ra yigitlarga to‘y marosimlarida, bayram kunlarida yoki shunga o‘xshash shodiyona davralarda zar chopon kiygizish odat tusiga kirgan. Bu jarayon yigitlarda o‘ziga ishonch, g‘urur, faxr tuyg‘ularini shakllantirgan, qolaversa, ularning zimmalariga yanada mas’uliyat yukini yuklagan. Bundan tashqari, boshqalarga ibrat qilib ham ko‘rsatishga asos bo‘lgan. Yuqoridagi bandda botir yigitlarga xos kuchlilik, ulug‘vorlik, sobitlik kabi xususiyatlar tog‘ va adirlarga ko‘chiriladi. Shoirning poetik mahorati bilan yulduzlar porlab turgan osmon esa chopon sifatida tasvirlanib yurt tog‘-adirlariga tortiq etilmoqda. Shoir lojuvard osmonni chopon sifatida kiygan vatan tog‘-adirlari tasvirini zabardast yigitlar ko‘rinishida gavdalantirgan. Bu bilan shoir kitobxonga ajoyib obrazli jarayonni havola etadi.

“Hazrat Navoiy” g‘azalida esa Vatan timsoli Navoiy timsoli bilan bir nuqtada tutashadi va betakror poetik obraz vujudga keladi:

Navoiyning Vatan yanglig‘ qiyosi yo‘q,
Vatan yanglig‘ senga har kun kerak bo‘lgay[26]. Bu o‘xshatishlar ham Navoiy dahosining buyukligini, ham Vatan tushunchasining ulug‘vorligini ortiqcha so‘z ishlatmasdan turib ham ifodalay olish imkonini yaratgan.

“Hammaga ma’lum gap ham hech kimnikiga o‘xshamagan yo‘sinda ifodalansa, she’r jozibali bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘z maqolalaridan birida[27]. Nazarimda, Sirojiddin Sayyidning ona mavzusidagi she’rlarida aynan mana shu jihat ko‘zga tashlanadi. Shoir ijodida bu mavzu katta salmoqni egallamasa-da, o‘ziga xos ifoda va samimiyatga yo‘g‘rilgan fikrlar shodasi bilan kitobxon ko‘nglidan o‘rin egallaydi. “… badiiy obrazning o‘ziga xos belgilarga boyligi tasvirlanayotgan narsa-buyum, hodisa yoki kishilarga xos xususiyatlarning barchasini ko‘rsatishni emas, balki ulardan alohida ajralib turuvchilarini, ularning mohiyatini ochib beradiganlarini jamlashni anglatadi”[28]. Shoir Ona mavzusida qalam tebratar ekan, Onalarga xos bo‘lgan eng inja sifatlarni, fazilatlarni noziklik bilan ifodalaydi.

Sen mas’ud dunyoning borini
O‘ylading. Yashading. O‘tkarding.
Berding qorachiqlar umrini,
Tunlarni kiprikda ko‘tarding[29].

Onalar siymosiga xos tuyg‘ular Sirojiddin Sayyid qalamida mubolag‘ali tarzda badiiy jihatdan ta’sirchan ifoda etiladi: “Tunlarni kiprikda ko‘tarding”. Bu manzaralarda onalarimizning bedorligi, nafaqat jismonan uyg‘oqligi – ko‘zlarning uyqu uchun yumilmasligini, balki qalb bedorligini ham mohiyatga singdirib yuboradi. Shoirning ushbu topilmasi hayotiy asoslarga tayanilganligi bilan ham ibratli. Kiprikning ko‘tarilib turishi ko‘zning yumilmaganidan dalolat bersa, tunlarning kiprikda ko‘tarilishi tungi bedorlikdan, farzandining oromi uchun

[26] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. |– Б. 471.
[27] Qozoqboy Yo‘ldosh. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 222.
[28] Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod - Moliya, 2007. – B. 35.
[29] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 26.

barcha azoblarga tayyor turgan onalarning umumlashma siymosini ham kitobxon ko‘z o‘ngida reallashtirishga xizmat qilmoqda.

“Ustodi avval” she’rida ona obrazi inson kamoloti uchun kamarbasta bo‘ladigan, o‘zligini va borliqni anglab borishda ko‘maklashadigan ustoz qiyofasida namoyon bo‘ladi:

Xatim chiqdi onam kaftin xatlaridan,
Kamol topdim kaftlarining taftlaridan[30]

Kaft chiziqlari shoir nazdida xat – yozuv hisoblanadi. Bu jumla bilan shoir har birimizning kamol topishimizda onalarimizning o‘rni beqiyosligiga ishora qiladi. Bu kaftlarda nafaqat ilm-ziyo bor, qolaversa, qaynoq mehr, ruhiy quvvat ham mujassamdir.

Shoir sevgi-muhabbat mavzusidagi she’rlarida badiiy niyatni yangicha poetik topilmalar orqali ifodalay olgan. Bunda ijodkorning individual uslubi yetakchilik qiladi, ya’ni xalqona timsollar va detallar sevgi, oshiq, yor kabi bu mavzuning ustunlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shoir sevgi obrazini ko‘ngildagi tugun, erib ketgan qor, ungan boychechak, shovullagan terak, nayson yuvgan ko‘ylak kabi timsollar asosida aks ettiradi.

Sevgi tiniq kulgungizdir, saqlang uni,
Sizning go‘zal mulkingizdir, asrang uni[31].

Aslida mavhum tushuncha hisoblangan sevgi tuyg‘usini shoir sof, samimiy tabassumda gavdalantirgan.

Badiiy tafakkurning yangi xususiyatlari ijodkorning yor vasfiga bag‘ishlangan ushbu to‘rtligida ham bo‘y ko‘rsatadi:

Soching hasratida har yon yig‘idir,
Qoshing qay jallodning xunxor tig‘idir.
Zulfing ostidagi pinhon xoling ham
Qaysi bir oshiqning qorachig‘idir[32].

To‘rtlikda yorning go‘zalligi ta’riflangan. An’anaviylik yorning sochi, zulfi, xoli, qoshi kabi a’zolari tilga olinishida va ularni tig‘, pinhon, yig‘i kabi so‘zlarga biriktirilib qo‘llanilishida ko‘zga tashlanadi. Bizningcha, shoir mahorati yor zulflari ostiga bekingan xolning oshiq qorachig‘iga o‘xshatib obraz yaratganligidir. Oshiq yor go‘zalligiga maftun bo‘lganligidan unga yashirin sur’atda tikila-tikila o‘z qorachiqlarini yor yuzida qoldiradiki, bu yorga yanada go‘zallik baxsh etib xolga aylanadi. Tasavvur etsa bo‘ladigan, ammo amalga oshirish umuman mumkin bo‘lmagan bu mubolag‘ali holat kitobxonga estetik zavq beradi.

Sirojiddin Sayyid yaratgan ohorli obrazlar milliy ruhiyat, o‘zbekona turmush-tarzi bilan bevosita bog‘liq. Bu shoirning xalq ruhiyatiga yaqinligidan dalolat beradi va o‘z navbatida she’rlarining kitobxonlar ko‘nglidan joy olishini ta’minlaydi. Hayotimizda qo‘llaniladigan oddiygina buyumlarning poetik obraz darajasigacha ko‘tarishi bilan shoir o‘zbek tili so‘zlarining ma’no qatlamlari boyishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

---

[30] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. – Тошкент: Шарқ, 2018. |– Б. 162.
[31] O‘sha kitob. – B. 49.
[32] O‘sha kitob. – B. 142.

“Shoir ijodida badiiy san’atlarning o‘rni” deb nomlanuvchi uchinchi bobning birinchi paragrafi **“Tashbeh san’ati va shoir mahorati”** deb nomlanib, unda shoir ijodida tashbeh san’atining o‘rni masalasi yoritilgan. Shoir ijodidagi tashbehlarning o‘xshatilayotgan qismlarini hisobga olib ikki guruhga bo‘lib tahlil qilishni joiz topdik:

1. O‘xshayotgan qism tabiat unsuri ekanligiga ko‘ra.
2. O‘xshatilayotgan qismning tabiat unsurlarini aks ettirishiga ko‘ra.

Birinchi guruhdagi tashbehlarga e’tibor berilsa, tabiat unsurlari, hodisalari, tasvirlari biroz bo‘lsa-da kichraytirib, o‘z vazifalarini bajarishda ojizlik qilayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ular go‘yo insonlardan, ular yaratgan narsalardan, topildiqlardan kuch olayotgan singari tasvirlanadi. Aynan mana shu xususiyat shoir ijodidagi tashbehlarning o‘ziga xos ajralib turadigan jihatlarini namoyon etadi. Sababi adabiyotda yaratilgan barcha tashbehlar tabiatga uyg‘unlashtirib, undagi barcha go‘zalliklarga qiyosan yaratilgan. Sir emaski, kishilardagi ulug‘vorlik tog‘larga, xokisorlik yerga yoki qizlarning yuz go‘zalligi gulga, oyga, qaddi-qomati sarv daraxtiga, sochlari sunbulga, ko‘zlari yulduzga, ko‘ngil kengligi osmonga qiyos qilingan. Sirojiddin Sayyid ko‘pgina tashbehlarida bu hodisaning aksini qo‘llab, o‘zgacha uslubni yaratadi. Bunday tashbehlar ham o‘quvchi hayratiga, zavqiga, tahsiniga sazovor bo‘la oladi. Oy bilan bog‘liq tashbehlar quyidagi to‘rtlikda mavjud:

Bir uzuk bor edi, ey ko‘zi suzuk,
Biz ishqning shu oltin halqasin uzdik.
Ko‘kdagi yarim oy – siniq uzukday,
Ko‘ldagi yarim oy – bir siniq uzuk[33].

She’rda uzuk ishq halqasi sifatida tasvirlangan. Oshiq tilidan aytilgan ushbu fikrlarda ma’shuqaga iddao, yarim ko‘ngillarni birlashtirishga undov, chaqiriq anglashiladi. Bu misralardagi “yarim oy” oshiqning ishq dardiga mubtalo bo‘lib, ma’shuqa visoliga intizorligini izohlab kelayotganday go‘yo. “Siniq” so‘zi zamiridagi g‘amginlik oshiq ko‘ngillarning ruhiy holatini anglatib kelmoqda.

Ikkinchi guruh tashbehlarda, o‘xshatilayotgan qism tabiat unsurlari vositasida tasvirlanadi (birinchi guruhda o‘xshayotgan qismning o‘zi tabiat unsurlari bo‘lib ularni tasvirlashda, holatni yoritib berishda, ularni izohlashda inson omili bilan bunyod etilganlar izohlovchi vazifasini bajaradi: oy – hamshira misol, quyosh – non misol, qarg‘alar – qora atlas kabi, teraklar – o‘chgan shamlarday, chinorlar – ustunlar kabi).

“Suv keltirgan elda aziz” she’ri Boysun shahri va uning atrofidagi qishloqlarda necha zamonlardan buyon toza ichimlik suviga tashna bo‘lib yashayotgan aholining ko‘p yillik orzu-armonlari qisqa muddatda ro‘yobga chiqqaniga oid voqeaga bag‘ishlanadi. Eldoshlarining quvonchlariga sherik bo‘lgan shoir qalb so‘zlarini she’rga solar ekan, go‘yo doston kuylayotgan baxshidek misralarni misralarga tizadi:

[33] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 103.

Jamolingni koʻz-koʻz aylab koʻz oʻynatgim keladi,
Boychiborni oʻynatganday soʻz oʻynatgim keladi[34].

Bu oʻrinda ham Sirojiddin Sayyidga xos usul, ya'ni ikki she'riy san'atni bir nuqtada birlashtirib yangi topilmani kashf qilish mahoratini koʻrishimiz mumkin. Boychibor bu – "Alpomish" dostonidagi ot obraziga berilgan nom. She'rda bu nomni qoʻllagan shoir talmeh san'atini vujudga keltirgan. Boychibordagi shiddatlilik, shijoatkorlik, ildamlik, hayratga solishlik kabi xislatlarning oʻz ruhiyatida ham boʻlishni va she'rlariga koʻchishini istaydi. Qoʻllanilgan tashbeh kitobxon zavqini oshiradi, ruhiyatiga koʻtarinkilik bagʻishlaydi.

Sirojiddin Sayyid tashbeh san'atidan unumli foydalanib, oʻz she'rlarining badiiy qiymatini oshirgan. Tashbeh san'atini qoʻllashda boshqa san'at turlaridan ham unumli foydalanib, yangicha poetik obrazlarni yarata olgan.

"Shoirning badiiy san'atlarni qoʻllash usullari" deb nomlangan ikkinchi paragrafda mubolagʻa, tazod, irsoli masal, talmeh kabi she'riy san'atlarning shoir ijodidagi oʻrni bayon qilingan.

Sirojiddin Sayyid koʻp bora murojaat qilgan san'at turlaridan biri bu – talmeh san'atidir. "She'r va nasrda tarixiy shaxslar, voqealar, afsonalar, asar qahramonlariga ishora qilmoq san'ati talmeh deb ataladi"[35]. Shoirning "Istiqlol" she'rida yozuvchi Shuhrat tilga olinadi. Uning shaxs sifatida xalqi, adabiyoti va yurt istiqboli uchun qilgan bemisl xizmatlari talqin etilar ekan, xalq qalbida mangu oʻz oʻrniga ega siymo boʻlgani adib asariga ishora qilinish orqali ("Oltin zanglamas") koʻpma'noli poetik qatlamlarni yuzaga keltiradi:

Zamon mard zotlarni bekor tanlamas,
Oltin zanglamagay, oltin zanglamas[36].

Adabiyotda soʻzlar yoki fikrlar qarama-qarshiligidan poetik maqsadda foydalanish uzoq asrlardan beri mavjud. She'riyatda bu qarshilantirish san'at darajasigacha koʻtarilib tazodni yuzaga keltirgan. "Uyquda aytgan she'rim"da bir necha oʻrinlarda tazod san'ati mavjud. Lirik qahramonning Tangriga iltijosi shaklida ifodalangan fikrlarda atrofga, yurt taqdiriga, avlodlar kelajagiga befarq boʻlmaslik, muammolarga koʻz yumib emas, ularni bartaraf etish yoʻllari haqida qaygʻurishni baxt deb bilish gʻoyalari oʻz aksini topgan.

Gʻaflatga yor etma, tugʻyon buyurgil,
Oromimni olgin, boʻronimni ber[37].

Bu oʻrinda ikki antonimik juftlik ishtirok etgan. Gʻaflat va tugʻyon, orom va boʻron. Gʻaflat befarq, loqaydlikni ifodalasa, tugʻyon esa qarama-qarshi fikrlar, yangi mulohazalar, ijobiy his-tuygʻular, harakatga undovchi motivlarni oʻz ichiga oladi va ular jamiyat rivojiga hissa qoʻshishga qodir. Orom va boʻron soʻzlari oʻzaro antonim emas. Orom mavhum ot. Boʻron tabiat hodisasi. Lekin boʻrondagi gʻalayon, isyonkorlik, junbushga kelish xususiyatlari oʻz navbatida orom bilan zidlik hosil qila oladi. Lirik qahramondagi loqaydlikka qarshi isyonkor fikrlar

[34] Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. "Хамса" ҳайратлари. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 131.
[35] Асаллайев А. ва бошқ. Бадиий санъат жозибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 9.
[36] Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 336.
[37] Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 142.

kitobxonga ham yuqadi. Shoir bu she’rda bugungi kunda global hisoblangan loqaydlik va befarqlikka qarshi tuyg‘ularni ifodalagan. Xulosa chiqarishni esa kitobxonga havola etadi.

“She’rda maqol, matal, hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda ishlatish usuliga irsoli masal deb ataladi”[38]. Adabiyotda maqol janrini qo‘llash uzoq asrlardan beri an’ana sifatida mavjud. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotida bu janr keng ko‘lamga ega. Bunga sabab o‘zbek adabiyotining tamal toshi hisoblangan xalq og‘zaki ijodining boyligidir. “Bevafolik” deb nomlangan she’rning bir necha o‘rinlarida irsoli masal qo‘llanilgan. She’rda bevafolik bir necha o‘xshatishlar asosida talqin etiladi:

O‘sma ketar, egma qoshlar qarib qolgay,
Ikki qoshning o‘z “yo”siga vafosi yo‘q[39].

Xalqimizda “O‘sma ketar, qosh qolar” degan maqol bor. Bu maqol o‘tkinchi narsalarga ruju qo‘ymaslik, asl narsalarning qadriga yetishdek mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi. Shoirning mahorati shundaki, nafaqat o‘sma, balki, qoshlar shaklining o‘zi-da o‘tkinchi, ularning chiroyi ham abadiy emasligini “Ikki qoshning o‘z “yo”siga vafosi yo‘q” jumlasida mujassamlashtirganligidadir.

Adabiyotdagi badiiylikni ta’minlovchi san’atlardan biri mubolag‘a san’atidir. Shoir Sirojiddin Sayyid ijodida ham bu san’at yordamida go‘zal poetik topilmalar yaratilganki, ularning barchasi kitobxonga zavq ulashadi hamda badiiy tafakkuri rivojiga xizmat qiladi.

Kiprik bilan bog‘liq badiiy obrazlar she’riyat dunyosida talaygina. Kiprik yor go‘zalligini ifodalashda, yurtga mehr-muhabbat tuyg‘ularini aks ettirishda o‘ziga xos badiiylik yarata olgan. “To‘rt so‘z” she’rida kipriklar bilan hayoli, iboli qiz obrazi gavdalantiriladi:

Yerga tegib turgan kipriklar,
Iffat ekib turgan kipriklar[40].

Aslida kiprik detalining o‘ziyoq go‘zallikni tavsiflashda ishtirok etar ekan, uning yerga tegish darajasida ta’riflab yor go‘zalligini yanada nafisroq, yanada injaliroq tasvirlashga erishgan. Shoir nazdida u yerga tegish barobarida iffat urug‘larini ham ekmoqda. Bu kabi obrazli holat yorning tashqi go‘zalligi bilan bir qatorda ichki nafosatining ham yuqori ekanligiga kitobxon e’tiborini jalb etadi.

Shoir qo‘llagan barcha she’riy san’atlar shoir ijodining yuksalishiga, badiiyatning oshishiga, so‘z qo‘llashda tajriba orttirishiga, obrazli tasvirlarning boyishiga xizmat qilgan bo‘lsa, o‘z navbatida shoir mahorati bilan ushbu she’riy san’atlarning tadrijiy takomillashuvi rivoj topmoqda.

XULOSA

1. Shoir Vatan, Ona, sevgi-muhabbat, ijtimoiy-ma’naviy mavzularda yuksak g‘oyaviylik bilan sug‘orilgan ko‘plab ijod namunalarini yaratdi. Asarlarda aks etgan

[38] Асаллайев А. ва бошқ. Бадиий санъат жозибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.– Б. 8.
[39]Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б. 37.
[40] Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 395.

mavzu va g‘oya birligi barcha komponentlarni, jumladan, shakl va mazmun, obraz va obrazlilik, janr xususiyatlari hamda badiiy san’atlarni bir maxrajda birlashtirib, badiiy mukammal she’rlar yaratilishiga asos yaratdi.

2. Yuksak vatanparvarlik, ogohlikka da’vat, bedor qalb bilan chin insoniylik fitratida yashashga undash kabi g‘oyalar shoir ijodining o‘q tomirini tashkil etib, uning barcha davr ijodi – mustaqillikkacha va keyingi davr ijodi uchun ham xarakterli bo‘lib, tadrijiy takomilini belgilab keladi.

3. Sirojiddin Sayyid barcha she’r tizimlari (aruz, barmoq, erkin she’r tizimi)da barakali ijod qilib kelmoqda. Aruzda yaratilgan ijod namunalarida ham an’anaviylik, ham novatorlik ko‘zga tashlanadi. Mumtoz janrlardan hisoblangan g‘azal, muxammas, fard kabilar shoir ijodida salmoqli o‘ringa ega. Barmoq vaznidagi asarlarining ayrimlarida ham aruz vaznining ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Erkin she’r tizimidagi ijod namunalarida ogohlikka, ma’naviy barkamollikka da’vat ruhi sezilib turadi.

4. Shoir dostonlarida erksizlikka, adolatsizlikka qarshi isyon, ichki tovlanishlarning tobora olovlanib, shoir “men”i va kitobxon ruhiyatini junbushga soladi. Va ayni shu jihatga ko‘ra ular bir-biri bilan maslakdoshga aylanadi. Lirik qahramon bilan shoir “men”i turli rakurslarda birlashadi. Bu birlashuv Ona zaminga, zamonga, urushga, jaholatga, vatanga, ijtimoiy munosabatlarga, insoniy tuyg‘ularning qadri kabi masalalarga bo‘lgan faol munosabatda yaqqol namoyon bo‘ladi.

5. Shoir ijodida Vatan, Ona, yor, oshiq, so‘z, umr kabi timsollarga boy betakror poetik obrazlar yaratilgan. Yaratilgan poetik obrazlar milliy turmush tarzimizda, millatimiz mentalitetiga mos bo‘lgan hayotiy poetik vositalar, detallar yordamida chizilib, milliy kolorit shakllantirilib, o‘quvchi ruhiyatiga yaqinlashtirilgan.

6. Vatan mavzusi shoir ijodining katta qismini egallaydi. Bu obrazni poetik gavdalantirishda shoir so‘ri, ayvon, qo‘rg‘on, obdasta, qaldirg‘och, hassa, narvon kabi badiiy unsurlarni mahorat bilan qo‘llaydi. Ayni paytda vatan timsolini Ona va buyuk daholar siymosida ham aks ettirib, ikki obyektni bir nuqtada birlashtirib, o‘zining badiiy salohiyatini ko‘rsatib bera olgan.

7. Falsafiy ruh yetakchilik qiladigan timsollarni gavdalantirishda mavhumlikdan aniqlik tomon borib betakror obrazlar yarata olgan. Jumladan, umr – osilgan tugma, uchqur tulpor, chayqalib ketguvchi kema; dunyo – eski chopon, urchuq singari.

8. Sirojiddin Sayyid tashbeh san’atidan unumli foydalanib she’rlarining badiiy qiymatini oshirgan. Shoir tashbehlarida tasvir etilmoqchi bo‘lgan obyekt tabiat unsurlariga nisbatan taqqoslanishida ikki xil ifoda usuli ko‘zga tashlanadi. Ayrim yaratilgan tashbehlar tabiat unsurlari, vositalaridan ustunroq, kuchliroq tarzda tasvirlansa, ba’zilari ularga teng ravishda qiyoslanadi.

9. Shoir foydalangan barcha she’riy san’atlar, jumladan, tashbeh, tazod, talmeh, irsoli masal, mubolag‘a kabi badiiy san’at turlari shoir ijodining yuksalishiga, badiiyatning oshishiga, so‘z qo‘llashda tajriba orttirishiga, obrazli tasvirlarning boyishiga xizmat qilgan bo‘lsa, o‘z navbatida shoir mahorati bilan ushbu she’riy san’atlarning tadrijiy takomillashuviga katta hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA

THE POETICS OF SIROJIDDIN SAYYID'S POETRY

10.00.02 – Uzbek literature
(Uzbek literature of the 20th century and the current literary process)

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.4.PhD/Fil4067.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, and Russian (resume)) on the Scientific Council's website (www.tsuull.uz) and on the "ZiyoNet" Information and Education Portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Kahramonov Kurdosh Yalgashevich** Doctor of Philological sciences, professor
Official opponents:	**Yusupova Dilnavoz Rakhmonovna** Doctor of Philological sciences, professor
	Mullakhojayeva Rano Toshkhojayevna Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Chirchik State Pedagogical University**

The defense of the dissertation will take place on "____" _____ 2025 at _____ hours at a meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44: www.tsuull.uz e-mail:monitoring@navoiy-uni.uz)

The dissertation is available an the Information and Resource Center of the Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under the number _____). Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

The dissertation author's abstract is distributed on "____" _____ 2025

(registry record No. _____ dated "____"_____ 2025)

H.A.Dadaboyev
Chairman of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

Q.U.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological sciences, professor

N.A. Jabborov
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council for the award of scientific degrees, octor of Philological sciences, professor

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4067 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qahramonov Qurdosh Yalgashevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yusupova Dilnavoz Rahmonovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Mullaxo‘jayeva Ra’no Toshxo‘jayevna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “16” may soat 14 00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (354 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100. Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel: (99871) 281-42-44; faks:(99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “02” may da tarqatildi

(2025-yil “02” 05 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In world literary studies, the poet's poetic universe, the dominant characteristics of their poetry, imagery and the creation of poetic images, the mastery of utilizing literary devices, and stylistic uniqueness have long been subjects of study. Concurrently, considering that these aspects manifest individually in each poet's work, differing from others, they hold scientific significance as a creative process that never becomes obsolete, revealing new facets in each creative piece.

In world literary studies, from the beginning of the last century to the present day, scientific research has consistently regarded the ideological and literary features of poets' works, thematic scope, artistry, imagery, image creation, and skillful use of poetic elements as one of the main issues of literary criticism. In particular, the matters of literary image, lyrical hero, the poet's "self" in poetry, symbols and allegories, and their literary interpretation remain among the leading concerns. Studying various poetic devices used in poetry as products of creative mastery and an active attitude towards reality is also one of the pressing issues in contemporary literary studies.

Uzbek literary criticism has always seriously studied the poet's poetic vision, his potential for creating a literary image. The literary discoveries of the new generation of creators are characterized by their various shades of meaning, their focus on reflecting the emotional experiences of the lyrical hero against the background of social and spiritual-aesthetic, as well as human-nature relations. The study of Uzbek poetry, especially the work of the talented poet Sirojiddin Sayyid, from the point of view of literary skill, creates the need to make observations on problems related to the nature of lyrical experience by determining the poet's attitude based on the poet's personality, worldview, manifestation of his "self", new ideological and literary motifs, traditional and modern methods of expression in the creation of images and symbols, and the interpretation of symbolic and figurative images. So, "we must never forget that attention to literature, art and culture is, first and foremost, attention to our people and our future. As our great poet Chulpon said, if literature and culture thrive, the nation can survive" [41] Therefore, based on the new research directions emerging in contemporary Uzbek literary studies, the approach to the inner world of spiritual experience manifested in the poet's work from the perspective of national and universal values determines the relevance of the work.

[41]Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5847 dated 8 October 2019 “On the approval of the concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, PF-5850 dated 21 October 2019 “The prestige of the Uzbek language as the satate language and spiritual and educational measures”, PF-60 dated 28 January 2022 “On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026”, PF-158 dated 11 September 2023 “On the strategy “Uzbekistan – 2030”. ”, Resolution No. PQ-3652 dated 5 April 2018 “On measures to further improve the activities of the Union of Writers of Uzbekistan”, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No 139 of March 11, 2021 “On the development of entrepreneurship and mass media in the Uzbek language” This dissertation research serves the established purpose. to a certain extent the implementation of the tasks set out as well as other regulatory and legal documents related to this activity.

Research corresponds to the priority areas of scientific and technological development in the Republic. The dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the Republican Scientific and Technological Development I: “Forming a system of innovative ideas and ways of implementing them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

The extent of study of the problem. The issues of poetics in poetry, its uniqueness as a literary genre, classification, literary and aesthetic features, imagery, and the creation of poetic images have been thoroughly studied by Western and Eastern scholars and philosophers. Specifically, these aspects are reflected in the views of scholars from various periods, including Plato, Aristotle, Al-Farabi, Avicenna, Hegel, V.G. Belinsky, A. Potebnya, A. Saadi, Fitrat, René Wellek, Austin Warren, Izzat Sultan, L. Timofeev, G. Pospelov, B.Sarimsoqov, and V.E. Khalizev[42].

In Uzbek literary studies, observations on poetry have been made in scientific-theoretical and popular-scientific research, in which a number of works have been written on such issues as the genre characteristics of poetry, the scope of

[42] Шарафиддинов О. Замон. Қалб. Поэзия. – Тошкент, 1962; Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 1964; Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972; Белинский В. Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979; Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979; Форобий. Шоирлар санъати қонунлари ҳақида / Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980; Иззат Султон. Адабиёт назарияси. 2-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент, 1995; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М. Абдуллаев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2011; Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012; Умуров Ҳ. Тирик шеърлар поэтикаси. – Тошкент: Наврўз, 2015; Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016; Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.

